Uzoqova Sabohat Fazliddin qizi (mustaqil izlanuvchi, O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti, Toshkent, O‘zbekiston)

YANGI O‘ZBEKISTON ATROFIDA KECHAYOTGAN JARAYONLARNING TURKIYA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA YORITILISHI TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada xalqaro maydonda mamlakat imijini tanitish masalasining dolzarblashib borayotganligi, bunda Turkiya OAVlari o‘z auditoriyasi uchun Yangi O‘zbekiston haqida qanday axborotlar tarqatayotganligini tahlil etishning ahamiyati haqida so‘z boradi. O‘zbekiston haqida Turkiya ommaviy axborot vositalarida yoritilishini tahlil qilish Yangi O‘zbekiston atrofida rivojlanayotgan fikrlarni ham aks ettiruvchi, ham shakllantiradigan ko‘p qirrali imijni ochib beradi.*

Kalit so‘zlar: *mamlakat imiji, Yangi O‘zbekiston, Turkiya, ommaviy axborot vositalari, xorijiy auditoriya, Önce Vatan, Haber7.com, TRT AVAZ, trtvotworld.com.*

Узокова Сабохат Фазлиддиновна (независимый исследователь, Узбекский государственный университет мировых языков, Ташкент, Узбекистан)

АНАЛИЗ ОСВЕЩЕНИЯ ПРОЦЕССОВ, ПРОИСХОДЯЩИХ ВОКРУГ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА, В ТУРЕЦКИХ СМИ

Аннотация. *В данной статье говорится о возрастающей важности вопроса продвижения имиджа страны на международной арене, а также о важности анализа того, какую информацию о новом Узбекистане распространяют турецкие СМИ для своей аудитории. Анализ освещения Узбекистана в турецких средствах массовой информации раскрывает многогранный образ, который одновременно отражает и формирует развивающиеся мнения вокруг нового Узбекистана.*

Ключевые слова: *имидж страны, новый Узбекистан, Турция, СМИ, зарубежная аудитория, Önce Vatan, Haber7.com, TRT AVAZ, trtvotworld.com.*

Uzokova Sabohat Fazliddinovna (Independent Researcher, Uzbekistan State University of World Languages Tashkent, Uzbekistan)

ANALYSIS OF COVERAGE OF THE PROCESSES TAKING PLACE AROUND NEW UZBEKISTAN IN THE TURKISH MASS MEDIA

Annotation. *This article talks about the increasing importance of the issue of promoting the country's image in the international arena, and the importance of analyzing what kind of information about New Uzbekistan is disseminated by the Turkish mass media for its audience. Analyzing the coverage of Uzbekistan in the Turkish mass media reveals a multifaceted image that both reflects and shapes the developing opinions around New Uzbekistan.*

Keywords: *image of the country, New Uzbekistan, Turkey, mass media, foreign audience, Önce Vatan, Haber7.com, TRT AVAZ, trtvotworld.com.*

Kirish (Introduction). So‘nggi yillarda O‘zbekistonning yanada ochiq va ilg‘or davlatga aylanishiga, ayniqsa, Turkiya ommaviy axborot vositalarida katta e’tibor qaratilmoqda. “Yangi O‘zbekiston” deb atalgan imijning paydo bo‘lishi O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi tarixiy aloqalar, madaniy yaqinlik va umumiy tillar asosida shakllangan kengroq geosiyosiy ma’lumotlarni aks ettiradi. Ushbu maqola nafaqat O‘zbekistonda olib borilayotgan ichki islohotlar va modernizatsiya sa’y-harakatlarini yoritishga, balki bu o‘zgarishlarning mintaqaviy siyosat va xalqaro munosabatlar kontekstida qanday aks sado berayotganini tahlil qilishga xizmat qiladi.

O‘zbekistondagi voqealar haqida Turkiya ommaviy axborot vositalari tobora ko‘proq xabar berib borishi bilan jamoatchilik qiziqishini uyg‘otmoqda va rivojlanayotgan millatlarning o‘ziga xosligini chuqurroq tushunishga xizmat qilmoqda. Ushbu ma’lumotlar turkiy dunyoda hamkorlik va hamjihatlik atrofidagi muloqotga hissa qo‘shish bilan birga, Yangi O‘zbekiston haqidagi tasavvurlarni shakllantirgan axborotlar qanday yaratilgani va tarqatilishini chuqurroq o‘rganishni o‘z ichiga oladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Ommaviy axborot vositalarining mintaqa imijini shakllantirish jarayoniga ta’sirini o‘rganish muammosi fanlararo xususiyatga ega bo‘lib, turli fanlar doirasida ko‘rib chiqiladi: siyosatshunoslik, sotsiologiya, falsafa, ijtimoiy psixologiya, gumanitar geografiya, imijologiya va boshqalar. Faqat siyosatshunoslik bu hodisani butun xilma-xilligi bilan tizimli ravishda ko‘rib chiqishga imkon beradi. Shunga qaramay, mazkur ish doirasida ommaviy axborot vositalari orqali hudud imijini shakllantirish jarayoni haqida yaxlit tasavvurni shakllantirish uchun turli ijtimoiy-gumanitar fanlarning ilmiy an’analariga murojaat qilindi. I.Tatayeva, A. Brusovaya, I.Shchepina, V.Malkova, S.Anholt, K.Dinni kabi olimlar esa “hudud brendi” atamasi mohiyatini tadqiq etganlar. Imij masalasida

o‘zbek taqdiqotchilari ham ko‘plab izlanishlar olib borgan. Aynan xorijiy ommaviy axborot vositalari mamlakat imijiga ta’sir ko‘rsatishi birinchilardan bo‘lib Beruniy Alimovning izlanishlarida aks ettirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqotni o‘tkazish davomida tahlil, kontent tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish kabi ilmiy usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan siyosiy va iqtisodiy islohotlar tasviri Turkiya ommaviy axborot vositalari tomonidan optimizm va skeptitsizmning murakkab o‘zaro ta’sirini aks ettiradi. Bir qator nashrlar Prezident Shavkat Mirziyoyev ma’muriyatida o‘zgarishlarni amalga oshirish imkoniyatlarini ta’kidlagan bo‘lsa-da, bu islohotlarning sur’ati va chuqurligidan xavotir bildirganlar ham bo‘ldi. Bu ikki tomonlama munosabatlar kengroq global munozaralarga, xususan, xalqaro investitsiya huquqiga oid munozaralarga sabab bo‘ladi, chunki davlatlar tobora o‘z iqtisodiy siyosatlari ustidan nazoratni qaytarib olishga intilmoqda [1].

Demak, turk ommaviy axborot vositalaridagi axborotlar nafaqat o‘z auditoriyasini O‘zbekistonning rivojlanayotgan siyosiy manzarasi haqida xabardor qiladi, balki boshqaruv, kuch dinamikasi va iqtisodiy barqarorlikka intilish kabi umumiy mavzularni ham qamrab oladi.

O‘zbekistonni jahon maydonida mustaqil davlat sifatida birinchi bo‘lib tan olgan davlat Turkiyadir. O‘zbekiston bilan Turkiya o‘rtasida 90-yillarning boshlarida abadiy do‘stlik bitimi imzolangan. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng o‘ziga tarixan, ma’nan va etnik yaqin bo‘lgan Turkiya bilan do‘stlik aloqalarini yo‘lga qo‘ydi. Hatto, mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekistonda “turk modeli” asosida islohotlar olib borildi.

Biroq vaqt o‘tishi bilan ikki qardosh davlat o‘rtasidagi aloqalar uzildi. Ayrim siyosiy kelishmovchiliklar ortidan O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi do‘stlik aloqalariga darz ketdi. 2011-yilda Turkiya parlamenti O‘zbekistonni parlamentlararo do‘stlik guruhi tuzilmaydigan davlatlar sirasiga kiritgan edi [3].

Oradagi noqaniqlik tufayli O‘zbekistonda Turkiya imiji, Turkiya davlatida O‘zbekistonning imijiga putur yetgan edi. OAVlar esa vaziyatga xolis va aniq yondashuvlarni namoyish etmaganligi sabab, bu haqdagi asosiy informatsiyalar mish-mishlarga ko‘chgandi. O‘z vaqtida ikki davlat siyosatidagi salbiy munosabatlar tufayli O‘zbekiston haqida Turkiya ommaviy axborot vositalarida deyarli xabarlar berilmas, mamlakatda kechayotgan jarayonlar turklar auditoriyasiga to‘liq yetib bormas edi. Bugungi kunga kelib vaziyat yaxshi tomonga o‘zgardi va bu sabab ommaviy axborot vositalarida O‘zbekiston mavzusining yoritilishiga qanchalik ta’sir etganligi mazkur maqolada atroflicha tahlil qilinadi. Bunda Turkiyaning eng nomdor va ta’sir doirasi keng axborot agentliklari, gazeta va internet nashrlarida chop etilgan materiallar o‘rganib chiqildi.

2020-yilga kelib O‘zbekiston va Turkiya munosabatlari mustahkamlashib bordi, shu yili Istanbuldagi Qodir Xas universiteti jamoatchilikning Turkiya tashqi siyosati haqidagi tasavvurlariga doir o‘tkazilgan so‘rov natijalarini e’lon qildi. Qodir Xas universiteti tadqiqotchilari o‘tkazgan so‘rovnomadan o‘rin olgan “Turkiyaning do‘stlari” ro‘yxatida uchinchi o‘rinda O‘zbekiston turibdi. Qizig‘i, O‘zbekiston mazkur ro‘yxatning yuqori qatorida turganiga qaramay, so‘rov qatnashchilarining atigi qariyb 35 foizi bu mamlakatni Turkiyaga do‘st, 42 foizdan ortig‘i esa do‘st emas deb hisoblashini aytgan.

Karabuk universitetida xalqaro munosabatlar bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borayotgan Fazliddin Madiyev bu holatni O‘zbekiston va Turkiya aloqalari ancha yillar sovuq bo‘lib turgani, oxirgi vaqtda yaxshilangan bo‘lsa-da, oddiy turkiyaliklar hali bundan bexabarligi bilan izohlaydi [4]. Bu shuni anglatadiki, oddiy turkiyalik O‘zbekistonda bo‘layotgan voqea-hodisalardan bexabarmi, bu mamlakat haqida xorijga axborot uzatish kanallarining yetarli faoliyat ko‘rsatmayotganligi natijasidir. Xabardorlik darajasini oshirish esa bevosita OAV kuchidan to‘g‘ri foydalanishga, xalqaro mediamakonda mamlakat haqidagi axborotlar oqimini ko‘paytirish masalasiga bog‘liq.

Keling, shu o‘rinda O‘zbekiston haqida Turkiya ommaviy axborot vositalarida qanday axborotlar berilayotganligini tahlil qilamiz. Ular, asosan, nima haqida yozmoqda?

2020-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining birinchi majlislaridagi ishtiroki va ulardagi nutqlari xorijiy davlatlar rasmiy, akademik va ishbilarmon doiralarida katta qiziqish uyg‘otdi, ommaviy axborot vositalarida keng yoritildi. Xususan, Turkiyaning yetakchi ommaviy axborot vositalari, jumladan, Anatoliya axborot agentligi va TRT teleradiokompaniyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yangi saylangan Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi yig‘ilishidagi ishtiroki va nutqiga bag‘ishlangan tezkor xabarlarni tarqatdi.

Shavkat Mirziyoyevning xalq vakillariga murojaat qilib, “Sizlar tarixiy davrda tarixiy deputatlar bo‘lib saylandingiz. Bunga har kuni, har daqiqa munosib bo‘lishingiz, xalqchil qonunlar qabul qilib, aholi

farovonligi oshishiga munosib hissa qo‘shishingiz kerak”, degan so‘zlari xorijiy OAV diqqat markazida bo‘ldi.

Turkiyalik kuzatuvchilarning fikricha, davlat rahbarining bu boradagi jonkuyarligi tahsinga loyiq. Xabarlarda, shuningdek, Prezident tomonidan belgilab berilgan yo‘nalishlar O‘zbekiston uchun yangi ekani va “Yangi O‘zbekiston – yangi saylovlar” shiori ostida o‘tgan saylov natijalari mamlakatdagi siyosiy islohotlarga muhim turtki berishi ta’kidlab o‘tilgan. Parlament va hukumat oldiga qo‘yilgan aniq vazifalar davlat boshqaruv organlari zimmasiga yangi mas’uliyat yuklashi va ularni mamlakat ravnaqi uchun yanada faol va izchil ish uslublarini ishlab chiqishga undashi e’tirof etilgan [5].

2020-yilda nafaqat siyosiy o‘zgarishlar, balki O‘zbekistonning chet ellik sayyohlar uchun jozibadorlik darajasi jadal o‘sib borayotganligi Turkiyaning yetakchi ommaviy axborot vositalari e’tiborida bo‘ldi. Xususan, “Anadolu” yangiliklar agentligi mamlakatimizning xorijiy turistlarni jalb qilish ko‘rsatkichlari tobora ortib borayotgani haqida maqola chop etdi. Materialda qayd etilishicha, 2019-yil O‘zbekistonga kelgan xorijiy sayyohlar soni 26,2 foizga o‘sib, 6,7 million kishiga yetgan. Agentlik mamlakatimizga kelgan turistlar bo‘yicha Markaziy Osiyo davlatlari fuqarolari yetakchi o‘rinda ekanini ta’kidlagan. Keyingi o‘rinni MDH mamlakatlari vakillari egallagan. Nashrda qayd etilishicha, Turkiya O‘zbekistonga sayyohlar jo‘na-tish bo‘yicha uzoq xorij mamlakatlari orasida Xitoy, Janubiy Koreya va Hindistonni ortda qoldirib, birinchi o‘rinni egallab turibdi.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, Anadolu Turkiyadagi birinchi, yirik va keng auditoriyaga ega axborot agentligidir. 1920-yilda Prezident Kamol Otaturk tashabbusi bilan ochilgan agentlik Anqara shahrida joylashgan bo‘lib, uning butun dunyoda 36 ta muxbirlik punktlari faoliyat yuritmoqda. Agentlikning yangiliklari 11 tilda – turk, ingliz, fransuz, arab, rus, alban, bosniya, kurd, makedon hamda fors tillarida chop eti-ladi. Anadolu agentligi Fransiyaning eng yirik axborot agentligi – Agence France-Presse, dunyodagi eng katta fotobank – Getty Images kabi tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi. Agentlik shiori – “Ishonchli, xolis va tezkor jurnalistika”.

Anadolu axborot agentligining Toshkentda ham filiali bor. Garchi u bir muddat faoliyat yuritmagan bo‘lsa-da, ayni vaqtda mavjud.

Taklif o‘rnida aytish kerakki, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan yangi bosqichdagi tarixiy islohotlarni yanada kengroq yoritish, Anadolu kabi xalqaro miqyosdagi ommaviy axborot vositalari o‘rtasidagi hamkorlikni kengaytirish mamlakat imijini tanitishda yaxshi samara beradi. Chunki, agentlikning turkiyalik va turkiyzabonlarning axboriy madaniyatini shakllanishiga qo‘shgan hissasi va ta’siri sezilarli darajada. Anadolu yangiliklar agentligining maqolalari Turkiyaning boshqa yetakchi mediatuzilmalari tomonidan ham chop etiladi.

Fikrimizcha, mamlakat haqidagi axborotlarni dunyo mediamakoniga olib chiqishda faqatgina xorijda faoliyat olib borayotgan o‘zbeklar yoki xorijga yo‘naltirilgan axborotlarning o‘zi yetarli emas, buning uchun xorijlik jurnalistlarga ham O‘zbekistonda erkin ijod qilishiga yo‘l ochib berilishi kerak. Shuningdek, O‘zbekistonning boy tarixi, madaniyati, sayyohlik salohiyati va zamonaviy rivojlanishiga oid maqola Turkiyaning ommabop “Önce Vatan” gazetasida ham “Yangi O‘zbekiston” sarlavhasi ostida chop etildi (02.07. 2021). Jurnalist Irfon Hattoto‘g‘li qalamiga mansub ushbu maqolada O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasida do‘stlik va strategik aloqalar tobora rivojlanib borayotgani hamda yangi hamkorlik yo‘nalishlarining poydevoriga zamin yaratilayotgani qayd etilgan.

“Yangidan uyg‘onish davrini o‘z boshidan o‘tkazayotgan O‘zbekistonda boshlangan islohotlar o‘z mevasini bera boshladi. Yangilanishlar ko‘plab yangi hamkorlar va chet el sarmoyadorlarining investitsiya kiritishiga yo‘l ochmoqda hamda to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarning mamlakatga kirishi bilan Yangi O‘zbekiston butun dunyoning e’tiborini o‘ziga tortmoqda”, deb yozgan “Önce Vatan” [6].

2023-yilning mart oyida Turkiyaning Haber7.com sayti sahifasida jurnalist Gungor Yavuzaslan qalamiga mansub “Dunyo tarixiy burilish pallasida” sarlavhali maqola e’lon qilindi. Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlaridan birida insoniyat ayni payt “tarixiy burilish pallasida” ekani, dunyo taraqqiyotning bir bosqichidan yangi bosqichiga o‘tayotgani, shuningdek, bu davr oldindan taxmin qilib bo‘lmaydigan darajada mavhum voqeliklarga boy bo‘lishi haqidagi fikri bayoni bilan boshlanadi.

Muallif yozishicha, davlatimiz rahbarining ayni fikri pandemiya oqibatida vujudga kelgan, ko‘lami kengayib borayotgan mintaqaviy va global nizolar bilan to‘lib-toshgan bugungi kun manzarasini yaqqol ifoda etmoqda. Materialda mamlakatimiz tashqi siyosati yangi bosqichga ko‘tarilgani mintaqaviy integratsiya, hamkor va qo‘shni davlatlar bilan ittifoqchilik munosabati o‘rnatilishida yorqin namoyon ekani qayd

etilgan. Shuningdek, mamlakatimizda chegara muammolari hal etilishi mavzusi, respublikamizning raqobat va hamkorlik modeliga oid muhim ma'lumotlar ham atroflicha qalamga olingan.

2023-yil mart oyida Turkiyaning Demiroren axborot agentligi tasarrufidagi www.dha.com.tr, www.ntv.com.tr va boshqa bir necha ommabop saytlar sahifalarida Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan AQSHning Nyu-York shahrida tashkil etilgan Xalqaro suv konferensiyasi tafsilotlariga bag'ishlangan "Ilgari dunyodagi to'rtinchi yirik ko'l bo'lgan Orol dengizini tiklash ishlari olib borilmoqda" sarlavhali maqola e'lon qilindi. Unda ushbu anjumanda nutq so'zlagan O'zbekiston vakili ilgari dunyodagi 4-yirik ko'l bo'lgan va suvlariga global isish kabi ekologik muammolar ta'sir ko'rsatgan Orol dengizi atrofida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari haqidagi atroflicha ma'lumotlarni taqdim etgani qalamga olingan [7].

TRT AVAZ internet kanali saytida ham O'zbekiston haqida turli xil mazmundagi xabarlarni uchratish mumkin. E'tiborlisi, sayt O'zbekistonda bo'layotgan yangiliklarni birinchilardan bo'lib turkiy xalqlar auditoriyasiga yetkazadi. Misol uchun, "O'zbekistonda kecha bo'lib o'tgan umumxalq saylovlarini kuzatgan Turkiya Davlatlari Parlament Assambleyasi (TURKPA) Saylovni kuzatish missiyasi saylov milliy qonunchilik va xalqaro standartlarga muvofiq o'tganini ma'lum qildi" (28.10.2024) deb berilgan xabarda saylov jarayonlari va unga oid statistikalar tanishtiriladi [8].

"O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev TDT Davlat rahbarlari kengashining 11-sammitida nutq so'zladi" (6.11.2024.) sarlavhali maqolada Mirziyoyevning nutqidagi asosiy tushunchalar yetkazilgan [8;1-b.].

"O'zbekiston Afg'onistonga gumanitar yordam uchun "sog'liqni saqlash poyezdi" jo'natdi" (25.12.2024) [8;2-b.] nomli xabarning berilishi esa O'zbekistonning insonparvarlik imijini yaxshilashga hissa qo'shadi.

Shuningdek, TRT AVAZ saytida berib borilayotgan quyidagidek qiziqarli va jozibador materiallar, shubhasiz, auditoriyani O'zbekistonga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qilmoqda:

•"O'zbekistonlik Navro'zova tomonidan tashkil etilgan qishloq kutubxonasi Toshkent shahrida 109 ta kutubxonaning ochilishiga olib keldi" (14.10.2024) [8;3-b.].

•"O'zbekiston tog'larida topilgan yashirin o'rta asr shaharlari. Vashington universiteti olimlari O'zbekistonning baland tog'larida Ipak yo'li tarixi uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan ikkita qadimiy shaharni topdilar" (7.11.2024) [8;4-b.].

•"O'zbekistonda qo'lyozmalarni qayta tiklash laboratoriyasi ochildi. Laboratoriyada turk rassomlari nodir asarlarni ta'mirlash va saqlash bo'yicha tajribalari bilan o'rtoqlashmoqda" (5.11.2024)[8;5-b.] nomli maqolalar shular jumlasidandir.

TRT AVAZ internet kanalida "Toshkent suhbatlari" dasturi bo'lib, unda mamlakat san'ati, madaniyati va boshqa mavzular yuzasidan mushohada yuritiladi. "Videodasturlar" ruknida O'zbekistonda bo'lib o'tgan Navro'z bayramini jonli tarzda efirga uzatishgani, Farg'ona vodiysi haqida ko'rsatuv tayyorkangani, o'lkaning tarixiy maskanlari haqida "O'zbekiston maxsus" ko'rsatuvlari tomoshabinlarga doimiy taqdim etib borilganligini ko'rish mumkin. "Fotogaleriya" ruknida Xiva, Samarqand, Buxoro, o'zbek palovi, naqshli va imzoli tandir nonlari va boshqa mavzulardagi fotolar mavjudligi auditoriyaning O'zbekistonga bo'lgan qiziqishni yanada oshirishga hissa qo'shib turibdi.

2008-yili o'z faoliyatini boshlagan www.trtvotworld.com veb-sayti 37 tildagi xizmati bilan dunyo miqyosida 5-o'rinda turadi. Dunyoning muhim yangiliklarini mutaxassislarning fikri va dalillar asosida berib boradigan sayt 41 tilda butun dunyoga axborot tarqatadi. Uning sahifalarida O'zbekiston mavzularining yoritilishida o'ziga xos pozitsiya mavjud. Tadqiqot davomida saytda berilgan ko'plab maqolalar yondashuv va uslub jihatidan tahlil qilindi va e'tiborlisi ko'pgina axborot, asosan, O'zbekiston va Turkiya hamkorligidagi aloqalarga bag'ishlanganligi ko'zga tashlandi. Ya'ni, yuqoridagi misollardek, Turkiyaning boshqa saytlari O'zbekiston haqidagi umumiy, asosiy va qiziqarli mavzularini yoritishga e'tibor qaratsa, www.trtvotworld.com O'zbekiston mavzusini, albatta, Turkiya bilan bog'liq holatda ko'rsatgan. Quyidagi sarlavhalarga e'tibor qaratamiz:

•"Turkiya va O'zbekiston elektron tijoratni rivojlantirmoqchi. Kecha O'zbekiston investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri o'rinbosari Akram Aliyev Turkiya Savdo vaziri o'rinbosari Mustafo Tuzju bilan uchrashdi (2.10.2024.) [9].

•Turkiya yangi davrda O'zbekiston bilan bo'lgan munosabatini rivojlantirishni davom etadi. Prezident Erdo'g'an Mirziyoyevni O'zbekiston Prezidenti etib qayta saylanishi munosabati bilan tabrikladi (26.10.2021) [9;1-b.].

•"Samarqandda O'zbekiston va Turkiya madaniyat vakillari uchrashdi" (19.11.2024) [9;2-b.].

•"O'zbekiston – Turkiya biznes forumi bo'lib o'tdi (29.11.2024) [9;3-b.].

•“O‘zbekiston Turkiya bilan E-Permit tizimini ishga tushirdi (19.11.2024) [9;4-b.] kabi xabarlarda O‘zbekiston mavzusi Turkiya manfaati bilan yonma-yon tarzda ifodalangan.

Ta’kidlash joizki, Turkiyadagi O‘zbekiston elchixonasi tomonidan mamlakatimizdagi ziyorat turizmi imkoniyatlarini ushbu mamlakat jamoatchiligi orasida targ‘ib va tashviq qilish, xususan, xorijiy ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan faoliyat izchillik bilan davom ettirilmoqda.

Mohi Ramazon kirib kelishi bilan Turkiyadagi ko‘plab telekanallar ushbu muborak kunlar mazmuniga xos dasturlar tayyorlab efirga uzatishga kirishadi. “TRT 1”ning Ramazon ko‘rsatuvlarida yana bir o‘ziga xos jihat bor: dasturlar davomida boshlovchi Serdar Tunjer (Serdar Tuncer) O‘zbekistonga tashrifi davomida turli ziyoratgohlardan tayyorlangan telelavha va reportajlarini turk tomoshabinlari e’tiboriga havola etdi [10].

Xususan, uning turkum reportajlaridan biri Minorayi Kalon haqida bo‘lib, ko‘rsatuv boshlovchi Serdar Tunjerning “Ilm, ishq, muhabbat go‘zallik shahri bo‘lmish Movarounnahr eng go‘zal shaharlaridan biri Buxorodan, Xojagon tasavvufiy tariqatining asoschisi Abduxoliq G‘ijduvoniy diyoridan salom yo‘llayman” degan lutfi bilan boshlanadi. Tasvirga olish nuqtasi Minorayi Kalon joylashgan, atrofi mushtasham madrasalar bilan o‘ralgan maydonning markazi etib tanlangani va aynan oqshom fonida chiroqlar bilan tovlanib turgan inshootlarning yuqoridan olingan suratlari telesujetni yanada boyitgan.

O‘zbekiston Turizm va madaniy meros vazirligi hamda Anqara shahrida joylashgan “Üçbey Turizm” firmasi hamkorligida ishlab chiqilgan Serdar Tunjerning O‘zbekistonga ijodiy safari, reportajlarning Serdar Tunjerning milliondan ortiq kuzatuvchiga ega bo‘lgan ijtimoiy tarmoqlardagi sahifasiga ham joylashtirilishi mamlakatimiz ziyorat turizmi imkoniyatlarini turk jamoatchiligiga yetkazishda katta rol o‘ynashi va yanada ko‘proq ziyoratchilarni mamlakatimizga jalb etishiga hissa qo‘shdi.

Turkiy davlatlar tashkilotining Turizm vazirlarining yig‘ilishida Qo‘qon shahri “Ilk turizm poytaxti” degan sharafli nom bilan ulug‘landi. Bundan tashqari, 2023-yilda Britaniyaning BBC, AQSHning CNN, Yevropaning “Euronews”, AQSHning yirik Netflix va “Amadeus” onlayn-striming platformalari, Xitoyning “Trip.com” onlayn-sayohat platformasi, Birlashgan Arab Amirliklarining “Holiday factory” sayyohlik kompaniyasi, “Visa Fasilitation Servises Global” kompaniyasi bilan mamlakat turizm salohiyatini targ‘ib qilishga kelishildi va sohaga tegishli materiallarning efirga uzatish ishlari yo‘lga qo‘yildi. Ushbu bajarilayotgan ishlarning natijasi o‘laroq, mamlakatning turistik imiji yil sayin yaxshilanayotganini ta’kidlash mumkin.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa o‘rnida aytish lozimki, O‘zbekiston–Turkiya munosabatlari evolutsiyasi har ikki xalqning ommaviy axborot vositalarining axborotlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi, bu Markaziy Osiyoda hamkorlik dinamikasiga o‘tishni belgilab berdi. Tarixiy jihatdan ikki tomonlama munosabatlar mintaqaviy geosiyosat va mafkuraviy siljishlar ta'sirida o‘zgarib turdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev davrida yanada ochiqroq, islohotchi kun tartibini qabul qilar ekan, Turkiya mintaqadagi madaniy va iqtisodiy ishtirokini kuchaytirish imkoniyatidan unumli foydalanish yo‘lida harakat qilmoqda. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, turk ommaviy axborot vositalari, birinchi navbatda, O‘zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va uning strategik sheriklik munosabatlariga e’tibor qaratib, xalqni mintaqaviy barqarorlik va iqtisodiy integratsiyaning hal qiluvchi o‘yinchisi sifatida ko‘rsatmoqda. Bu tasvir nafaqat O‘zbekiston nufuzini oshiradi, balki Turkiyani modernizatsiya va demokratik qadriyatlarni ilgari surishda asosiy ittifoqchi sifatidagi mavqega ega bo‘ladi.

Turkiya ommaviy axborot vositalaridagi optimistik materiallar O‘zbekistonni nafaqat sherik sifatida, balki umumiy turkiy o‘zlikni rivojlantirish va o‘zaro milliy manfaatlarni ilgari surish uchun muhim vosita sifatida qaraydigan fuqarolar bilan aks sado beradi. O‘zbekiston haqida Turkiya ommaviy axborot vositalarida yoritilishini tahlil qilish Yangi O‘zbekiston atrofida rivojlanayotgan fikrlarni ham aks ettiruvchi va ham shakllantiradigan ko‘p qirrali imijni ochib beradi.

Kelajakdagi yondashuvlar ta’sirchan bo‘lib qolishi uchun turk ommaviy axborot vositalari turli nuqtayi nazarlardan foydalanishda davom etishi, O‘zbekistonning siyosiy manzarasi murakkabligini tan oladigan muvozanatli imijni ta'minlash va ikki xalq o‘rtasidagi konstruktiv muloqotni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Sattorova, M. “Nazoratni qayta tasdiqlash va shartnoma tuzuvchi tomonlarning investitsiya shartnomasi arbitrajiga ichki qonunchilik javoblari: islohot, sustkashlik va qarshilik o‘rtasida”. Kembridge University Press (CUP), 2016.

(2). Hakimov O. O‘zbekiston–Turkiya: tarix va islohotlar mushtarakligi. “Yangi O‘zbeksiton gazetasi”, 63-son, (585), 2022-yil 30-mart.

(3). BBC, Shodiyor Saif. Turkiya O‘zbekistonni do‘st bo‘lmagan davlatlar sirasiga kiritdi. www.bbc.com/uzbek
(4). “Amerika ovozi”, Adham Muhammad. Turkiyaliklar uchun AQSH dushman, O‘zbekiston nodo‘st davlatmi? www.amerikaovozi.com
(5).https://uzbekembassy.com.my/uzb/news_press/xorijdagi_vatandoshlar/turkiya_ommaviy_axborot_vositalari_ozbekiston_parlamentidagi_ozgarishlar_haqida.html
(6). UzA, Komilova M. Turkiyaning ommabop «Önce Vatan» gazetasida «Yangi O‘zbekiston» sarlavhali maqola chop etildi. https://uza.uz/oz/posts
(7). https://kknews.uz/oz/137446.html
(8). www.trtavaz.com.tr/haber/
(9). www.trt.net.tr/uzbek
(10). https://dunyo.info/uz/

Isakov Zakirjon Soliyevich (Qo‘qon davlat Pedagogika instituti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi)

YUKLAMALARNING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Maqolada yordamchi so‘z turkumiga mansub bo‘lgan yuklama turkumining morfologik va sintaktik xususiyatlari yoritilgan, yuklamalarning darak gaplardan so‘roq gap hosil qilish vazifasi tahlil qilingan. Yuklamalarning affikslarning ikki turiga munosabati, yuklamalarning asosiy qismi lug‘aviy shakl yasovchi affikslarga mansub vazifalarda qo‘llana olishi haqida ilmiy munozara yuritiladi. Unda yuklamalarning sintaktik vazifasi ikkilamchi bo‘lib, morfologik xususiyati asosiy vazifa ekanligi nazariy asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *yuklama, leksema, morfema, so‘z yasovchi qo‘shimcha, sintaktik shakl yasovchi qo‘shimcha, urgu‘, morfologik vazifa, sintaktik xususiyat, darak gap, so‘roq gap, so‘roq gap yasovchi.*

Исаков Закиржон Солиевич (доцент Кокандского государственного педагогического института, кандидат филологических наук)

ГРАММАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЧАСТИЦЫ

Аннотация. *В статье рассматриваются морфологические и синтаксические особенности категории вспомогательных слов, а также анализируется функция вспомогательных слов при образовании вопросительных предложений из повествовательных предложений. Ведутся научные дебаты о связи флексий с двумя типами аффиксов, а также о том, можно ли использовать большинство флексий в функциях, связанных с аффиксами, образующими лексические формы. Теоретически это основано на том факте, что синтаксическая функция нагрузок вторична, а морфологическая функция является основной.*

Ключевые слова: *частица, лексема, морфема, словообразовательное наречие, синтаксическое формообразующее наречие, ударение, морфологическая функция, синтаксический признак, повелительное предложение, вопросительное предложение, конструктор вопросительного предложения.*

Isakov Zakirzhon Solievich (associate Professor at Kokand State Pedagogical Institute, Candidate of Philological Sciences)

GRAMMATICAL FEATURES OF THE PARTICLE

Annotation. *The article examines the morphological and syntactic features of the category of auxiliary words, and analyzes the function of auxiliary words in the formation of interrogative sentences from declarative sentences. There is a scientific debate about the relationship of inflections with the two types of affixes, and whether most inflections can be used in functions related to affixes that form lexical forms. Theoretically, this is based on the fact that the syntactic function of loads is secondary, while the morphological function is primary.*

Keywords: *load, lexeme, morpheme, word-formation adverb, syntactic form-forming adverb, stress, morphological function, syntactic feature, imperative sentence, interrogative sentence, interrogative sentence constructor.*

Kirish. So‘z turkumlari ichida eng munozaraga sabab bo‘luvchilardan biri yuklama turkumidir. *-mi, -chi, -ki, -da, -a, -u, -oq* kabi qator yuklamalar mavjudki, ularning so‘z yoki so‘z emasligining o‘ziyoq davomli munozaralar uchun asos bo‘lib kelmoqda. Shuningdek, *-xon, -oy, -bek, -jon, -aloq, -choq* kabi qo‘shimchalar ham mavjud bo‘lib, odatda, lug‘aviy shakl yasovchi atamasi bilan izohlab keluvchi bu xil birliklarning til tizimidagi mavqeyini aniqlash ham bevosita yuqorida qo‘yilgan savollar yechimi bilan bog‘lanadi. Til tizimida yuklama bilan yondosh bo‘lgan hodisalar, avvalo, boshqa yordamchi so‘zlar, shuning-